



«T A S D I Q L A Y M A N»
Toshkent shahar statistika
boshqarmasi boshlig‘i
L. Mirsoatov
“6” dekabr 2024- yil

**2024-yil 9-dekabr kuni “Xalqaro Korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”
mavzusida bo‘lib o‘tgan yig‘ilish**

BAYONI № 12

2024- yil 6-dekabr

Toshkent sh.

Yig‘ilish raisi:

- L.Mirsoatov – Boshqarma boshlig‘i

Qatnashganlar:

- N. Shukurov – Boshqarma boshlig‘ining
o‘rinbosari
- Boshqarma tarmoq bo‘lim xodimlari

KUN TARTIBI:

**9-dekabr “Xalqaro - korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” to‘g‘risida davra
suhbati**

(L.Mirsoatov, N. Shukurov, A.Mamatov, M. Ismoilxo jayeva, L.Mirsoatov)

Yig‘ilishda Toshkent shahar statistika boshqarmasi boshlig‘i L.Mirsoatov so‘zga chiqib, 9-dekabr “xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” to‘g‘risida boshqarma tarmoq bo‘limlari xodimlariga qisqacha tushunchalar berib o‘tdi.

Yig‘ilishda so‘zga chiqgan L.Mirsoatov ta‘kidlashicha: korrupsiyaga qarshi kurashishda Statistika agentligi va Toshkent shahar statistika boshqarmasi tomonidan bir qator ishlar amalga oshilganligini takidlandi.

Bunda, Statistik hisobotlarni topshirish barcha respondentlar uchun to‘liq onlayn tizimga o‘tkazildi, Kadrlarni ishga olish tartibi “Argos.uz” elektron platformasi asosida amalga oshirilishiga erishildi, O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022-yil 8-avgustdagi O‘RQ-788-son “Davlat fuqaroligi xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi O‘RQ-931-son “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunlari,O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”gi

Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 5-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida” gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-210-son Qarori ijrosi to‘g‘risida ishlar tashkil etilgan va doimiy ravishda boshqarma va tuman statistika bo‘limlaridagi hodimlarga seminarlari tashkil etilib kelinmoqda.

Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida 2024-yil 30-aprelda Toshkent shahar statistika boshqarmasining Kompleks chora-tadbir rejasi tasdiqlangan.

Mazkur “Kompleks chora-tadbir rejasi” ijrosi yuzasidan belgilangan vazifalar samarali tashkil etishda yil boshidan boshqarma va tuman statistika bo‘limda faoliyat yurituvchi xodimlarga doimiy ravishda Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi yangi Qonun va Qarorlar tanishtirilib kelinmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish borasida seminarlar har oyda 1 marotaba ya’ni (132 ta seminarlar) boshqarma va tuman statistika bo‘lim xodimlari uchun seminarlar tashkil etilib, 830 nafardan ortiq xodimlar seminarda qatnashdi, axborot-targ‘ibot kabi amalga oshirilayotgan ishlar ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida, boshqarma va tuman statistika telegramm kanallarida doimiy ravishda keng yoritilib, <https://toshstat.uz> veb-saytiga joylashlashtirilib borilmoqda. “Jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish xonasi”da qabullar tashkil etilgan. Qabullar jarayonida har qanday korrupsiyaviy takliflar yuzasidan ko‘rilgan choralar bo‘yicha ijro bo‘limi bilan hamkorlikda tegishli ma’lumotlarni har chorakda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Statistika Agentligining Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmatiga taqdim etib borilmoqda.

Korrupsiya holatlarining oldini olish bo‘yicha boshqarma tomonidan plakat va bukletlar tayyorlangan. Bukletlar statistika organlari tomonidan o‘tkazilayotgan tadbirlarda va hisobot davrida tadbirkorlik subyektlariga tarqatish yo‘lga qo‘yilgan.

Shuningdek, boshqarma va tuman statistika bo‘limlarida stend,plakatlar,buklar bilan jihozlangan.

Boshqarmada har qanday ko‘rinishdagi korrupsiya holatlariga chek qo‘yish, uning oldini olish bo‘yicha ishlar samaradorligini yanada oshirish maqsadida boshqarma binosining asosiy kirish qismiga FACE ID turniket nazorati o‘rnatildi va

tadbirkorlik subyektlari va fuqarolar murojaatlarini qabul qilishni shaffof olib borish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslarni qabul qilish xonasi tashkil etilgan va kameralar bilan jihozlangan.

Boshqarmaga tashrif buyurgan korxona va tashkilotlarning mansabdon shaxslari va jismoniy shaxslarni qabul qilish uchun alohida qabulxona tashkil qilinib, kerakli org.texnikalar bilan jihozlandi.

Fuqarolarni boshqarma va tuman statistika bo‘limlari faoliyatidagi oid korruption holatlar bo‘yicha xabarlar va ma’lumotlar uchun mo‘ljallangan “Murojaatlar qutisi” tashkil etilgan.

Har 15 ish sanasida Korrupsiyaga qarshi kurash komissiya a’zolari tomonidan ochib o‘rganilishi to‘g‘risida ta‘kidlab o‘tdildi.

Shuningdek, statistik hisobotlarini qabul qilishda jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilishda korrupsiyaviy holatlarga duch kelganda tegishli huquqni himoya qiluvchi organlarga murojaat qilish, statistika hisobotlarini qabul qilishda korruption holatlarga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida takidlab o‘tildi.

Yig‘ilish davomida Toshkent shahar statistika boshqarmasining Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati kotibi A.Mamatov 9-dekabr “Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” yuzasidan so‘zga chiqib, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida tushuntirishlar berdi.

Shu bilan birga, boshqarma tarmoq bo‘limlari xodimlarining odob-axloq qoidalariga amal qilishlari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tildi.

Kun tartibidagi masalalar va ular to‘g‘risidagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib yig‘ilish

Q A R O R Q I L A D I:

1.Toshkent shahar statistika boshqarmasi boshlig‘i L.Mirsoatov so‘zga chiqib, “9- dekabr Xalqaro- korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” va O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagи O‘RQ-788-son “Davlat fuqaroligi xizmati to‘g‘risidagi”gi qonuni va O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi O‘RQ-931-son “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonuni yuzasidan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo‘limlari boshliqlariga:

Toshkent shahar statistika boshqarmasi boshlig‘i L.Mirsoatov so‘zga chiqib, O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagи O‘RQ-788-son “Davlat fuqaroligi xizmati to‘g‘risidagi”gi qonuni va O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi O‘RQ-931-son “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonuni bandlarida berilgan barcha topshiriqlar so‘zsiz bajarilishi ta’milansin hamda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha ma’lumotlar rahbariyatga kiritilsin.

Yig‘ilish kotibi



A.Mamatov